

YAPON TILIDAGI TAQLID SO‘ZLARINING HISSIY BILISH IFODASINING
TAHLILI

Sobirova Diyoraxon Rovshan qizi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Yaponshunoslik oliy maktabining 1-bosqich
toyanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqola, Taqlid so‘zlarning hissiy bilish tahlili bo‘lib, asosan blogerlarning maqolalari asosida olib borildi. 3ta saytta yoritilgan blogerlarning 1250ta maqolalarning ichidan olingan 546ta taqlidiy so‘zlari terib chiqildi va bu Taqlidiy so‘zlarning baholash sistemasi (Yaponiya) asosida baholagan holda anketa so‘roqnomasi olib borildi. Natijada ularning qay darajada baholanganligi ko‘rsatilgan. Ushbu maqolamiz, yapon tili taqlidiy so‘zlarni o‘rganayotgan o‘quvchilarga, qanday hissiy ifodalanayotganligini aniqlantirib keladi va bu esa, ularga qulaylik yaratilishiga yordam beradi.

Аннотация: Данная статья представляет собой анализ чувственного восприятия слов-подражателей, проведенный на основе статей блоггеров. Из 1259 статей, размещенных на 3 сайтах были отобраны 546 слов-подражателей по которым был проведен анкетный опрос путем их оценки на основе Системы оценки слов-подражателей (Япония). В статье размещены итоги данного анкетирования. Данная статья позволит изучающим слова-подражатели в японском языке лучше определять чувственное восприятие данных слов.

Annotation: This article is an analysis of the sensory perception of imitative words, conducted on the basis of articles posted by bloggers. Out of 1,259 articles posted on 3 sites, 546 imitator words were selected for which a questionnaire was conducted by evaluating them based on the Imitator Word Evaluation System (Japan). The article contains the results of this survey. This article will allow students studying Japanese imitator words to better comprehend the sensory perception of these words.

Yapon tilidagi so‘zlarda hatti-harakatga, tovushga, ovozga hamda his-tuyg‘uga nisbatan qo‘llanadigan taqlidiy so‘zlar juda ham ko‘p.³⁷ Ushbu so‘zlar esa jonli ifodaga ega bo‘lib, Yapon tilidagi muloqot jarayonida muhim ro‘lni o‘ynaydi. Yapon tili ona tili bo‘lsa, u tabiiy holatda ishlatiladi, ammo, Yapon tilini o‘rganayotgan insonlar uchun esa bu, o‘ta mashaqqatli jarayonini boshidan o‘tgazishi mumkin, chunki, bu taqlid so‘zlarning soni ko‘p va uning ishlatilishini his qilib qo‘llay olmasa, bularning ma‘nosini tushunib yetish mushkul hisoblanadi.³⁸

Chunki Yaponlar ham ushbu taqlidiy so‘zlarni ishlatayotganida o‘zining “Chuqur Xis-tuyg‘ular”ni ishga solgan holda qo‘llashadi. Uning ustiga ushbu so‘zlarni boshqa so‘zlar bilan ifodalab bo‘lmazligi uchun ham, Yapon tili o‘rganuvchi insonlarga Yapon tili taqlid so‘zlarning asl ma‘nosi va ishlatilishini aniq va chuqur o‘rganilishi qiyin deb aytishadi.

³⁷金田一(1978)「擬音語・擬態語概説」角川書店

³⁸田宇(1998)「現在、オノマトペの一般的に二つの種類がある」東京堂出版

Yapon tili o'rganuvchilarga taqlidiy so'zlarni o'rganishi uchun, aynan ushbu taqlidiy so'zlarning qo'llanilishi jarayonini keltirilgan holda o'rganishi ko'proq o'zlashtira olishi mumkin ekanligini hisobga olgan holda, taqlidiy so'zlarning misollarini taqdim etuvchi sistemani yo'lga qo'yish jarayoni olib borilmoqda. Olim Korin va boshqalar Taqlidiy so'zlarning Yapon-ingliz-xitoy- koreys tili Online lug'atini ishlab chiqarishdi. Ammo ushbu jarayoni katta mablag' hamda katta qiyinchiliklar mavjud bo'lganligi sababli, barcha taqlidiy so'zlar qo'llanilmagan.³⁹ Bunday online lug'at hozirgi kunda o'quvchilar hamda talabalar va o'rganuvchilarga katta yordam bermoqda. Agar bu lug'at barcha taqlidiy so'zlarni qamrab olsa, undan ham yaxshi bo'ladi deb o'ylaymiz.

Ushbu maqolada, taqlidiy so'zlarning qo'llanilayotgan jarayonini yeg'gan holda, turli xil taxlilni olib borishni ko'zlaganligi uchun, avvallo Bloggerlarning maqolalarining ustida ishlar olib borildi. Shuningdek, har bir taqlidiy so'zlarining qo'llanilayotgan jarayoniga so'zlovchining his - tug'usini bildiruvchi ma'lumotlarni ham yeg'ish rejasi ham mavjud.

Jadval 1	To'plam maqsadiga olingan taqlidiy so'zlar	
Harakat kategoriyasi	Taqlidiy so'zlar	Soni
Ishlamaslik	ごろごろ(GOROGORO, のんびり(NONBIRI)...	24
Charchash	うんざり(UNZARI),	30
Ichmoq	くたくた(KUTAKUTA)...	20
Yemoq	がぶがぶ(GABUGABU),	15
Yutalish	ごくごく(GOKUGOKU)...かり	11
Ko'rish	かり(KARIKARI),	16
	ぱくり(PAKURI)...	
	けほけほ(KEHOKEHO),	
	こほん(KOHON)...	
	きょろきょろ	
	(KYOROKYORO),	
	まじまじ(MAJIMAJI)...	

2. 1 Tadqiqod usuli.⁴⁰ Idi. (24.03.2019dagi ishlov) Ushbu taqlidiy so'zlari "Yapon tili taqlidiy so'zlar lug'ati" [3].da berilgan 299ta taqlidiy so'zlardan bir qismini jadval 1 da keltirildi.

Huddi shunday usuldagi qidiruv natijasiga ko'ra 1,250ta bloggerlarning maqolasi aniqlandi. Ushbu ishda bloggerlarning maqolalari mavzusi hamda kichik mavzuchalaridan ham taqlidiy so'zlar olingan. Shulardan 546ta taqlidiy so'zlar terib olindi.

2.2 Teg qo'yish. 2.1da aytilgan taqlidiy so'zlar qidiruvi jarayonida, tog'ri topilmagan misollar ham mavjud edi. Misol uchun 「おほん OHON (yutalish holatini bildiradi)」, qidiruvga berilgan natijasiga ko'ra 「おほんを読みましょう」 - "Kitob(OHON)ni mutolaa qilamiz" degan gapidek xato qidiruv natijasi ham mavjud bo'ldi.

Jadval 2 Qidiruv natijasiga ko'ra tog'ri topilganlik darajasi

³⁹ 香林隆子,増永良文: "オノマトベのオンライン多言語 辞書の構築", DEWS2002 論文集,A4-4, 2002.

⁴⁰ www.Amebo.co.jp.

Taqlidiy so'zlar	Tog'ri topilganlik darajasi
おほん (OHON)	20.0% (6/30)
かつ (KA)	55.0% (16/30)
ぐぐっ (GUGU)	10.0% (3/30)
けほけほ (KEHOKEHO)	5.0% (1/30)
げほげほ (GEHOGEHO)	25.0% (5/30)
ごほごほ (GOHOGOHO)	90.0% (27/30)
こほこほ (KOHOKOHO)	70.0% (17/25)
ごほん (GOHON)	85.0% (25/30)
こほんこほん (KOHONKOHON)	75.0% (22/30)
ごほんごほん (GOHONGOHON)	65.0% (19/30)
ぜーぜー (ZE-ZE)	100.0% (20/20)
ぜりぜり (ZERIZERI)	100.0% (40/40)
ごろごろ (GOROGORO)	100.0% (4/4)

Qidiruv natijada ma'lum bo'lgan bloggerlarning maqola parcha qismlaridan olingan taqlidiy so'zlarning teglari birma-bir tekshirildi. Uning natijasiga ko'ra umumiy 37.8% maqola parchalarida ishlatilgan taqlidiy so'zlar tog'ri qo'llanilgan. (1250ta maqola parchasi ichidan olingan natijasi hisoblanadi) Demak, hammasi ham taqlidiy so'zlar bo'lib chiqmasligi ma'lum bo'ldi.

3. His tuyg'u ifodasi. 3.1 Ishlatiladigan ma'lumot. Taqlidiy so'zlarni yuqorida keltirilgan (2.2) tog'ri ishlatilgan taqlidiy so'zlarni olib keying tadqiqod ishiga ishlatildi. Bu yerda ⁴¹Ptaszynskilar ishlab chiqqan «Yapon tilining hissiy bilish tahlili»dan olingan Hissiy ifoda elementlariga asoslangan holda, Hissiy bilish darajasi aniqlandi. Ushbu hissiy bilish darajasini, ⁴²NAKAMURA yozgan «Yapon tilining hissiyotini 10ta kategoriyaga bo'lish: Xursand, jaxil, qayg'u, qo'rquv, uyalish, yoqtirish va h.k.»dan olindi. Ulardan bir qismini quyidagicha ifoda qilamiz:

Xursandchilik : めでたい, 幸福感, にんまり...

⁴¹ Michal Ptaszynski, Pawel Dybala, Wenhan Shi, Rafal Rzepka and Kenji Araki: "A System for Affect Analysis of Utterances in Japanese Supported with Web Mining", Journal of Japan Society for Fuzzy Theory and Intelligent Informatics, Vol.21, No. 2 (April), pp. 30-49 (194-213), 2009

⁴² 中村明, "感情表現辞典", 東京堂出版, 1993

Jaxil :	殺意, 逆鱗に触れる ...
Qayg'ulik :	悲しみ, 嗚咽, 寂しい ...
Afsuslik :	不気味, 寒気, 頼りない ...
Uyalish :	恥ずかしい, 赤らめる ...
Yoqtirish :	友情, 慈悲, 蕩ける ...
Shoshilishlik :	焦らす, どよめく, 感嘆 ...
Tinchlik :	落ち着く, 平然, びくともしない

3.2 Xissiyotni baholash. 3.1 da belgilangan hissiy ifodalash elementlarining maqola parchalarida paydo bo'lish tezligi tekshiriladi va har bir tuyg'u uchun ball hisoblanadi. Misol uchun, "Sara-Sara" taqlidiy so'zlarning maqola parchalarida ishlatilgan holatiga ko'ra, "Xursandchilik" tuyg'usi baholashda 4 baho deb topildi. "Jaxil" 1 baho, "Qayg'ulik" 3 baho, "Tinchlik" esa 5 baho deb topildi. Ushbu baholar esa emosiya skori dedik. Quyidagi natija taxlilini ko'rishimiz mumkin:

Tadqiqot natijasi va ko'rib chiqish. Yuqorida so'rov natijalari va tuyg'u ballarini solishtiradigan grafik ko'rsatilgan. Imkoniyatimiz cheklanganligi uchun, 15ta taqlidiy so'zlardan 4ta taqlidiy so'zlarning natija jadvalini namoyish qilindi. ⁴³ "Xursandchilik" va "Yoqtirish" toifasidagi tuyg'u ballari umumiy o'rtacha bahosi 2,73 va 2,03 ni tashkil etdi. (Boshqa toifalar natijasi 1.07 dan 1.37 gacha bo'ldi) "Xursandchilik" toifasiga kelsak, anketa uchun javob beradigan kishilarga osonlikcha javob beradigan omillar va blog postlariga aylanish ehtimoli yuqori deb hisoblanadi. "Yoqtirish" turkumidagi taqlidiy so'zlar esa 446 ta hissiy ifoda elementi mavjud bo'lib, 10 ta hissiy kategoriasidan eng kattasi hisoblanadi. (Boshqa toifalar 106 dan 269 gacha), hissiy ballar ko'tarilish ehtimoli bor, chunki ko'p hissiy elementlar mavjud. Boshqa tomondan, "Qayg'ulik" toifasidagi tuyg'u ballari "HoRoRi" taqlidiy so'zidan tashqari Taqlidiy so'zlarda 1,00dan 1,78 gacha past natijasiga erishildi. Buning sababi esa, "Qayg'ulik" turkumidagi tuyg'u ifodasi elementlari blog maqolalarida kam ishlatiladigan so'zlarni o'z ichiga olgan. Masalan, "ular yetishmasligi", "ehtiyot bo'lishlari", "qiyinchiliklarga duch kelishlari", "bosim o'tkazishlari", "ehtirosiga ega bo'lishlari" va "yuqori mukofotga ega bo'lishlari" kabi hissiyot tuyg'ularini o'z ichiga olgan. "Horori" esa "Horori" "Sakai" toifasidagi hissiy ifoda elementlariga kiritilganligi sababli 2.00 ning yuqori qiymati belgilandi. Ushbu tajribada, Nakamuraning tuyg'u ifodasi lug'atidan chiqarilgan tuyg'u ifodasi elementlari ishlatilgan. Shuning uchun notatsiyaning o'zgarishi ta'siri kuzatildi. Misol uchun, "bezovta qiluvchi" iborasi blog xabarlarida tez-tez uchraydi, ammo hissiy ifoda elementidagi ifoda "xafa" bo'lib, his-tuyg'u puxtasida aks etilmagan. Kelajakdagi tajribalarda eslatmalardagi farqlarni hisobga olgan holda ma'lumotlarni ishlatishi kerak deb hisoblaymiz.

Xulosa. Internet Saytlarda qo'llanadigan Bloggerlarning maqolalar ichidan 546ta taqlidiy so'zlar ustida olib borilgan ushbu ishimizda, 1250ta maqola ko'rib chiqildi hamda ulardagi taqlidiy so'zlarning 37.8%lari o'z ma'noda ishlatilganligi aniqlandi. Bundan tashqari, 37.8% ichiga kiruvchi taqlidiy so'zlarning hissiy bilish tug'usi bo'yicha olib borilgan anketalar natijasiga ko'ra, so'zlovchining qay holatida bu taqlidiy so'zlarni ishlatganlik bahosi aniqlanib, unda asosan "xursand" kayfiyatida ishlatilgan taqlidiy so'zlar ko'p ekanligi aniqlandi.

⁴³ 香林隆子,増永良文: "オノマトベのオンライン多言語 辞書の構築", DEWS2002 論文集,A4-4, 2002

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqqan holda, kelgusi tadqiqot ishlatida xissiy bilish mezoni yanada chuqur o'rganib chiqib, ularning aniq ko'rsatuvchi jadvallar yaratilishi rejalashtirilmoqda. Bu esa, o'quvchi tomonidan bildiriladigan hissiy bilishga yanada yorqinroq va aniqlik kiritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 金田一(1978)「擬音語・擬態語概説」角川書店
2. 中村明,"感情表現辞典",東京堂出版,1993
3. 田宇 (1998) 「現在、オノマトペの一般的 に二つの種類がある」東京堂出版
4. 香林隆子,増永良文 : "オノマトペのオンライン多言語 辞書の構築", DEWS2002 論文集,A4-4, 2002
5. 日本語形態素解析システム JUMAN 6.0, 2006.
6. 小野正弘 : "擬音語・擬態語 4500 日本語オノマトペ辞典", 小学館,2007.
7. Chisato Asaga, Mukarramah Yusuf, Chiemi Watanabe: "Onomatopedia: Onomatopoeia Online Example Dictionary System Extracted from Data on the Web", The 10th Asia Pacific Web Conference(APWeb), 2008.
8. Michal Ptaszynski, Pawel Dybala, Wenhan Shi, Rafal Rzepka and Kenji Araki: "A System for Affect Analysis of Utterances in Japanese Supported with Web Mining", Journal of Japan Society for Fuzzy Theory and Intelligent Informatics, Vol.21, No. 2 (April), pp. 30-49 (194-213), 2009.
9. <http://www-lab25.kuee.kyoto-u.ac.jp/nl-resource/juman.html>.